



SOME PROBLEMS IN THE INVESTIGATION AND COLLECTION OF DAMAGES CAUSED BY VIOLATION OF THE REQUIREMENTS OF THE ECOLOGICAL EXPERTISE

Uktam Utayev

*Independent Researcher at the Law Enforcement Academy
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Ecological expertise, damage recovery, conditional coefficient, investigation practice, judicial practice, illegal tree felling, non-metallic materials, ecological damage, Supreme Court Plenum, unified practice.

Received: 13.05.26

Accepted: 14.05.26

Published: 15.05.26

Abstract: This article examines the problems of recovering damages caused to the environment as a result of violations of ecological expertise requirements during investigation and court proceedings. The legal nature of conditional coefficients established by Government resolutions, their inconsistent application in investigation and judicial practice, and discrepancies in determining the amount of damage are analyzed using specific criminal cases, and proposals for forming a unified practice are put forward.

EKOLOGIK EKSPERTIZA TALABLARINI BUZISH OQIBATIDAGI ZARARLARNI TERGOV VA SUD JARAYONIDA UNDIRISHDAGI AYRIM MUAMMOLAR

O'ktam O'tayev

*Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ekologik ekspertiza, zararni undirish, shartli koeffitsiyent, tergov amaliyoti, sud amaliyoti, daraxtlarni noqonuniy kesish, noruda materiallar, ekologik zarar, Oliy sud Plenumi, yagona amaliyot.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekologik ekspertiza talablarini buzish oqibatida atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni tergov va sud jarayonida undirishdagi muammolar yoritilgan. Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan shartli koeffitsiyentlarning huquqiy tabiati, tergov va sud amaliyotida ularning turlicha qo'llanilishi, zarar miqdorini aniqlashdagi nomuvofiqliklar konkret jinoyat ishlari misolida tahlil qilingan

hamda yagona amaliyotni shakllantirishga doir takliflar ilgari surilgan.

НЕКОТОРЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАССЛЕДОВАНИЯ И ВЗЫСКАНИЯ УЩЕРБА, ПРИЧИНЕННОГО НАРУШЕНИЕМ ТРЕБОВАНИЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ

Уктам Утаев

Независимый исследователь

Академия правоохранительных органов

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Экологическая экспертиза, взыскание ущерба, условный коэффициент, следственная практика, судебная практика, незаконная вырубка деревьев, отходы, экологический ущерб, Пленарное заседание Верховного суда, единая практика.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблемы расследования и взыскания ущерба, причиненного окружающей среде нарушением требований экологической экспертизы. Анализируется правовая природа условных коэффициентов, установленных постановлениями Кабинета Министров, их различное применение в следственной и судебной практике, несоответствия в определении размера ущерба на примере конкретных уголовных дел, а также выдвигаются предложения по формированию единой практики.

Kirish. Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktabrdagi PF-5863-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2030 yilgacha bo'lgan davrda Atrof-muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olish, yetkazilgan zararlarni undirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish kabi vazifalar belgilab qo'yilgan.

Muhokama va natijalar. Mazkur Konsepsiyadan kelib chiqib, ekologik ekspertiza xulosalarida ko'rsatilgan talablar - atrof-muhit obyektlarini (atmosfera havosi, suv, yer, tuproq, yer qa'ri, bioxilma-xillik, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar) antropogen ta'sirdan saqlash, ekologik jihatdan eng kam xavf tug'diruvchi materiallardan ustuvor foydalanish, qo'riqlanadigan tabiiy

hududlarni kengaytirish, zaharli kimyoviy va radioaktiv moddalardan ekologik xavfsiz foydalanish, chiqindilar bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish, aholining ekologik madaniyatini shakllantirish kabi masalalar aniq belgilab qo‘yilgan. Biroq amaliyotda ayrim subyektlar tomonidan ushbu talablarning bajarilmayotganligi tabiatga zarar yetkazilishiga va yuridik javobgarlikning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Bosh prokuratura tomonidan atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni hisoblashda vakolatli organlar tomonidan qo‘llanilayotgan koeffitsiyentlar, ular asosida tergov organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, dastlabki tergov hamda sud muhokamasi natijalari va majburiy ijro byurosi tomonidan undiruvga qaratilgan hujjatlarning ijro etilishi ahvoli o‘rganilgan.

Tahlillarga ko‘ra, 2025 yil davomida Ekologiya milliy qo‘mitasi tomonidan prokuratura organlariga jami 2 trln. 893 mlrd. so‘m zarar hisoblangan 216 ta material yuborilgan. Ularning 160 tasi bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, 45 tasi bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish haqida qarorlar qabul qilingan.

Mazkur toifadagi jinoyat ishlarining tergov va sud amaliyoti asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996 yil 20 dekabrda 36-sonli «Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida»gi qarorining 13-bandiga asosan shakllangan. Mazkur bandda tabiatga yetkazilgan zararni qoplashga oid summalar Vazirlar Mahkamasining 2014 yilgi 290-sonli va 2017 yilgi 375-sonli qarorlarida nazarda tutilgan tartibda undirilishi belgilangan.

Ekologik ekspertiza obyekti bo‘lgan daraxt va butalarni noqonuniy kesish hamda noruda materiallarni noqonuniy qazib olish natijasida yetkazilgan zararlarni hisoblashda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 22 avgustdagi 464-sonli va 2022 yil 23 noyabrdagi 666-sonli qarorlarida ko‘rsatilgan koeffitsiyentlar qo‘llanilgan.

Biroq tergov va sud amaliyotini o‘rganish natijalari ushbu koeffitsiyentlarning huquqiy tabiati va jinoyat ishlarida qo‘llanish chegaralari bo‘yicha yagona yondashuv mavjud emasligini ko‘rsatmoqda.

Masalan, 2023 yil 4 fevral kuni «B. G. H.» MCHJga ko‘p qavatli uy-joy qurish uchun ajratilgan yer maydonidagi 14 dona qiymati 133 mln. so‘m bo‘lgan shumtol va tut daraxtlar fuqaro Q.O. tomonidan noqonuniy kesib yuborilib, Vazirlar Mahkamasining 464-sonli qaroriga asosan yetkazilgan zarar miqdori 2 baravar koeffitsiyent qo‘llanilib, 266 mln. so‘m hisoblangan. Prokuratura tomonidan 21.02.2023 yilda Jinoyat kodeksining 198-moddasi 2-qismi bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan va ayblov xulosasi bilan sudga yuborilgan. Jinoyat ishlari bo‘yicha sudning

19.05.2023 yildagi hukmiga ko'ra Q.O. aybli deb topilib, 183 mln. so'm zararni undirish belgilangan (13 ta daraxtni kesganligi qismi isbotlanmagan).

Biroq, 28.08.2023 yilda apellyatsiya instansiyasi tergov va birinchi instansiya sudi kvalifikatsiya qilishda xatoga yo'l qo'yganligini - yetkazilgan zarar miqdori 91,5 mln. so'mdan kelib chiqmay, Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra ikki baravar miqdoridan kelib chiqib aybli deb topilganligini - qayd etib, tabiatga yetkazilgan 91,5 mln. so'm zarar jinoyat tarkibini bermasligi asosi bilan oqlov hukmi chiqargan.

Boshqa bir misolda, Q. tumanida joylashgan «M. M.» fermer xo'jaligi rahbari D.M. 2024 yil noyabr oyida 4 708,8 m³ hajmdagi qiymati 1,4 mlrd. so'm bo'lgan qum barxanlarini qonunga xilof ravishda qazib olib, Vazirlar Mahkamasining 666-sonli qaroriga asosan 10 baravar shartli koeffitsiyent qo'llanilib, yetkazilgan zarar 14 mlrd. so'm hisoblangan. Tuman prokuraturasi tomonidan 30.01.2025 yilda Jinoyat kodeksining 197-moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, sudga yuborilgan. Jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudning 27.06.2025 yildagi hukmiga ko'ra D.M. aybli deb topilib, jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni to'liq bartaraf etish majburiyati yuklangan.

Eng ko'zga tashlanarli holat respublikamizning boshqa bir hududidagi T. tumanidagi «S.I.S» MCHJ mansabdor shaxslari bilan bog'liq bo'lib, 2024 yil 29 aprelda 38,6 ming m³ qum-shag'al aralashmasini noqonuniy qazib olish natijasida tabiatga yetkazilgan zarar 3,4 mlrd. so'm hisoblangan. Sud tergovida mutaxassis jalb etilib, qayta o'lchov o'tkazilganda noqonuniy qazilgan hajm 3,7 ming m³, ya'ni 333 mln. so'mga teng ekani aniqlangan. Sudning 22.11.2024 yildagi hukmiga ko'ra shartli koeffitsiyent hisobga olinmagan holda zarar 333 mln. so'm belgilanib, aybdorga Jinoyat kodeksining 204-moddasi 2-qismi bilan jazo tayinlangan.

Ammo ushbu jamiyat mansabdor shaxslari o'z qilmishidan to'g'ri xulosa chiqarmasdan 2025 yil 6 yanvarda yana 35 ming m³ qum-shag'al aralashmasini noqonuniy qazib olish bilan shug'ullanganligi aniqlanib, ekologiya xodimlari tomonidan shartli koeffitsiyentlar qo'llangan holda zarar 708 mlrd. so'm hisoblangan. Lekin sud amaliyotidagi koeffitsiyentlar hisobga olinmaslik tajribasiga tayanib, tergov organi tomonidan 03.03.2025 yilda zarar miqdori koeffitsiyensiz 3,5 mlrd. so'm belgilab jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Sud tergovida mutaxassis xulosasiga ko'ra daryo o'zanida suv ko'payib qum-shag'al to'ldirib yuborilganligi sababli, noqonuniy qazilgan hajm atigi 251 m³ yoki 25 mln. so'm zarar yetkazilganligi aniqlangan. Sudning 21.08.2025 yildagi hukmi bilan aybdorga faqat Jinoyat kodeksining 228-moddasi 2-qismi «b» bandi bilan jazo tayinlanib, prokuraturaning depozit hisob raqamida saqlangan 508 mln. so'mdan 25 mln. so'm undiruvga qaratilib, 483 mln. so'm mablag'lar sudlanuvchi ixtiyoriga qaytarilgan.

Yuqoridagi misollar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, birgina jinoyat ishida dastlab 708 mlrd. so'm hisoblangan zarar miqdori tergov va sud qarorlari natijasida 28 ming baravarga kamaygan - 25 mln. so'mga tushgan. Bu holat yagona amaliyotning mavjud emasligining yaqqol tasdiq'idir.

Tahlillarga ko'ra, ayrim holatlarda Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan yetkazilgan zarar miqdoriga shartli koeffitsiyent qo'shilgan holda hukm chiqqan bo'lsa, boshqa holatlarda koeffitsiyentlar butunlay hisobdan chiqarilib yuborilgan. Aniq yo'nalish va bir xil amaliyot hamda rahbariy tushuntirishlar mavjud emasligi tergov va sud organlarida turlicha yondashuvni yuzaga keltirib chiqarib, o'z navbatida tabiatga yetkazilgan zararni undirishda samarasizlikka olib kelmoqda.

Oqibatida Ekologiya Milliy qo'mitasi tomonidan prokuratura organlariga yuborilgan 2 trln. 893 mlrd. so'mlik 216 ta hujjatdan 160 tasi bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lsa, sudga yuborilgan ishlarning 72 tasi bo'yicha ayblov hukmlari chiqarilgan, 2024–2025 yillar davomida 11 tasi sudning ajrimiga asosan tugatilgan. Bu raqamlar ekologiya sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish va zarar hisoblashda turli xil amaliyot shakllanganligini, qilmish va tabiatga yetkazilgan zararga nisbatan mutanosib baho berilmayotganligini hamda zararni undirishda real choralar ko'rilmasdan qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, maqolada o'tkazilgan empirik va qiyosiy tahlil natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi. Birinchidan, Vazirlar Mahkamasining 464-sonli va 666-sonli qarorlarida belgilangan shartli koeffitsiyentlarning jinoiy-huquqiy tabiati aniq belgilanmagani - ular ma'muriy javobgarlik chorasi sifatida belgilanganmi yoki jinoyat ishida zarar miqdorini aniqlashda to'g'ridan-to'g'ri qo'llaniladigan meyormi - bugungi kundagi asosiy muammo hisoblanadi. Ikkinchidan, Oliy sud Plenumining 36-sonli qarorida ushbu koeffitsiyentlarni qo'llash tartibi aniq tushuntirilmaganligi tergov va sud organlarida bir-biriga qarama-qarshi amaliyot shakllanishiga bevosita sabab bo'lgan - bir ishda koeffitsiyentlar hisobga olingan bo'lsa, boshqa ishda butunlay chetga surib qo'yilgan; bir ishda 708 mlrd. so'm hisoblangan zarar natijada 25 mln. so'mga tushgan. Uchinchidan, 2025 yilda Ekologiya milliy qo'mitasi yuborgan 2 trln. 893 mlrd. so'mlik 216 ta materialdan atigi 72 tasi bo'yicha ayblov hukmi chiqarilganligi (33,3 %), 11 ta ishning tugatilganligi zararni undirish mexanizmining jiddiy samarasizligini tasdiqlaydi.

Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan quyidagi masalalar bo'yicha tegishli choralar ko'rilishi maqsadga muvofiqdir: birinchidan, Vazirlar Mahkamasi qarorlaridagi shartli koeffitsiyentlarning jinoyat ishlarida qo'llanish tartibi va chegaralarini aniq tushuntiruvchi rahbariy tushuntirishlar berish; ikkinchidan, zarar miqdorini hisoblashda koeffitsiyentlarni ma'muriy-huquqiy va jinoiy-huquqiy kontekstda farqlab qo'llash mezonlarini

belgilash; uchinchidan, sud-ekspertiza xulosalarini standartlashtirish va mutaxassis xulosalarining ishonchliligini institutsional kafolatlash; to'rtinchidan, yagona tergov va sud amaliyotini shakllantirish orqali ekologik zararni undirish samaradorligini oshirish. Ushbu choralar nafaqat tergov va sud amaliyotidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etadi, balki tabiatga yetkazilgan zararni adolatli va mutanosib tarzda undirish mexanizmini mustahkamlab, ekologik xavfsizlikning ishonchli kafolatini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2023.
2. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси.
3. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 октябрдаги ПФ-5863-сон Фармони билан тасдиқланган «2030 йилгача бўлган даврда Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш» Концепцияси.
5. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги 36-сонли «Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасидаги жиноятлар тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида»ги қарори.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 20 октябрдаги 290-сонли «Биологик ресурслардан фойдаланишни тартибга солиш» тўғрисидаги қарори.
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 июндаги 375-сонли «Экология жамғармаси маблағларини шакллантириш ва улардан фойдаланиш тартиби» тўғрисидаги қарори.
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 22 августдаги 464-сонли «Давлат ўрмон фондига кирмайдиган дарахтлар ва буталарни экиш, парвариш қилиш ва улардан фойдаланиш тартиби» тўғрисидаги қарори.
9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 23 ноябрдаги 666-сонли «Норуда материалларни ноқонуний қазиб олишда табиий объектларга етказилган зарарни ҳисоблаш тартиби» тўғрисидаги қарори.
10. Ўзбекистон Республикасининг «Экологик экспертиза, атроф-муҳитга таъсирни баҳолаш ва стратегик экологик баҳолаш тўғрисида»ги Қонуни. 24.02.2025 й.
11. Ўзбекистон Республикаси Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси маълумотлари. 2025 й.
12. Бринчук М.М. Эколого-правовая ответственность - самостоятельный вид ответственности // Lex russica. - 2016. - № 6.

13. Крассов О.И. Экологическое право: Учебник. - 4-е изд. - М.: Норма: ИНФРА-М, 2021.